UO‘K: 323 (Z-31)

JAMIYAT MA’NAVIY HAYOTI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR MODERNIZATSIYALASHUVIDA YETAKCHI OMIL SIFATIDA

Z.T. Zamonov

Ma’naviy taraqqiyotga erishish yoxud unga olib keluvchi samarali vositalarni topish va amaliy faoliyatda qo‘llash ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi, jamiyat a’zolarining ma’naviy darajasi o‘sishiga olib keladi. Maqolada ijtimoiy rivojlanishga erishish va jamiyatning yuksalishiga olib kelishida muhim omil bo‘lgan ma’naviy hayot bilan bog‘liq faoliyat tahlil qilingan. Shuningdek, ma’naviy hayotning jamiyatda ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni amalga oshirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *jamiyat rivoji, Yangi O‘zbekiston, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot, ma’naviy hayot, ma’naviy taraqqiyot.*

Достижение духовного прогресса, либо нахождение эффективных средств, ведущих к нему, и использование их в практической деятельности положительно влияет на общественно-политические процессы и ведет к повышению нравственного уровня членов общества. В статье проанализирована деятельность, связанная с духовной жизнью, которая является важным фактором достижения социального развития и совершенствования общества. Также исследовано значение духовной жизни в социальных и культурных изменениях в обществе.

Ключевые слова: *общественное развитие, Новый Узбекистан, экономическое и социальное развитие, духовная жизнь, духовное развитие.*

Kirish

Tarix silsilasidan o‘tgan, necha davrlarni boshidan kechirgan va jamiyat rivojida muhim omil bo‘lgan ma’naviy asoslar doim o‘z dolzarbligini saqlab kelgan. Xususan, jamiyat ijtimoiy hayotini isloh qilishning birlamchi va ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan ma’naviy hayotni erkinlashtirish, uni takomillashtirish, o‘z navbatida, inson sha’ni, uning qadr-qimmati va manfaatlari masalasining ijobiy hal etilishiga zamin hozirlaydi.

Zotan, xalqimizning asrlar davomida shakllangan, tadrijiy rivojlangan, sayqal topgan ma’rifati, tarixiy tafakkur, urf-odatlari va qadriyatlari negizida ro‘yobga chiqishi tarixiy zaruriyat bo‘lgan ma’naviy jarayonlar, albatta, milliy g‘oya va mafkura bilan uzviy bog‘liqdir. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev: “Biz yangi sharoitda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirishga intilmoqdamiz. Bunday yondashuv – bugungi va kelgusi rivojlanishimiz uchun mustahkam poydevordir.

Shu ma’noda, Yangi O‘zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir” [1. B. 31], deya ta’kidlaydi. Milliy taraqqiyot yo‘li, avvalo, tarixiy tafakkur, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy mezonlar bilan belgilanadi, ma’naviy hayot darajasidan kuch oladi.

Material va usullar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalardagi islohotlar, eng avvalo, aholining nafaqat moddiy, balki ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirish va ularda tom ma’noda yuksak ma’naviyatli insonlarni tarbiyalash maqsadi bilan uyg‘unlashgan konseptual qarashlarlari taqiqot mavzusi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ma’naviy asoslarni o‘rganishga doir turli darajadagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar o‘ziga xos ma’no-mazmun kasb etib kel-

gan. Jumladan, professor V.Qo‘chqorov, A.Begmatov, A.Erkayev, X.Ahmedov, O‘.Muxtorov, J.To‘lenov va boshqa ko‘plab olimlar globallashuv sharoitida ma’naviy taraqqiyot masalasi, ijtimoiy jarayonlarni demokratlashtirishda milliy o‘zlikni anglash muammolari, jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlar dinamikasi, ijtimoiy taraqqiyotda ma’naviyatning o‘rni, ma’naviyat va milliy tafakkur masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishgan.

Bundan tashqari, MDH olimlari ma’naviy asoslarni tadqiq qilishda, asosan, ijtimoiy munosabatlar tizimida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘rni, tarbiyaning ma’naviy-axloqiy asoslarini shakllantirish, ma’naviy hayot muammolari V.Lavrinenko, R.Livshits, B.N.Chicherin, P.I.Novgorodsev, V.G.Fedotov va boshqalar tomonidan tadqiq etishgan.

Mazkur maqolada ijtimoiy-siyosiy fanlarda ko‘p qo‘llaniladigan obyektivlik, tarixiylik, tizimli va funksional yondashuv usullardan foydalanilgan.

Natija va muhokama

Jamiyatning ma’naviy hayoti o‘z mohiyatiga ko‘ra, kishilarning yashab-turishlarining real jarayoni, amal qilishiga qarab – ijtimoiy hayotiy faoliyat va ongni ishlab chiqarish, tarqatish hamda kishilarning ma’naviy ehtiyojlari bilan bog‘langan nisbiy mustaqil soha hisoblanadi.

“Ma’naviy hayot – ma’naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish va tarqatish, insonning ma’naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq ijtimoiy hayot sohasi. “Ma’naviy” deganda insonning ichki dunyosi, uning axloqiy intilishlari, intellektual faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi” [2]. Zotan, jamiyatning ma’naviy hayoti kishilar ma’naviy jihatdan erkin bo‘lishlari bilan bog‘liq holda amal qiladi.

Insonning ma’naviy erkinligi uning erkin faoliyat sohibi sifatida o‘zini anglab yetishini bildiradi. Insonning ma’naviy erkinligi haqiqiy qadriyatlarga erkin munosabatda bo‘lishda, ma’naviy-ijodiy erkinlikda namoyon bo‘ladi.

Yana bir jihati, ma’naviy asoslar insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo‘shib, aql, idrok va zakovatini kengaytirib, mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ma’naviy boyliklar jamiyatning umuman taraqqiyot manbai, zarur ozuqasi hisoblanadi. Taraqqiyotga eltuvchi vositalar turlicha bo‘lishi mumkin, lekin unga yetaklaydigan bosh mezon iqtisodiy va ma’naviy asosdir. Ma’naviy asoslar, o‘z navbatida, ma’naviy hayot darajasining o‘sib borishiga xizmat qiladi.

Siyosatshunos olim X.Ahmedov ma’naviy hayot xususida shunday deydi: “Jamiyat taraqqiyoti jarayonida bir rivojlanish bosqichidan boshqasiga o‘tilganida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalarda o‘zgarish bo‘lgani singari, uning ma’naviy hayotida ham muayyan o‘zgarishlar ro‘y berishi tabiiy holat hisoblanadi. Ushbu murakkab va serqirra yangilanish jarayonida ma’naviy hayotning barcha jihat hamda xususiyatlari yangi davrning ijtimoiy tuzilishi va zamona realliklarining talablariga mos keladigan, eski hayot mazmun-mohiyatidan turli darajada farq qiladigan yangi ma’naviy tizim sifatida shakllanadi, ushbu tizim muqarrar tarzda takomillashib boradi” [3. B. 16]. Jamiyatda ma’naviy faoliyatni yanada yuksaltirish strategik faoliyat va ustuvor yo‘nalishlardan birini tashkil etadi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasi yaxshilanishiga, mudom yuksalishiga olib keladi. Mamlakatimizda ma’naviy taraqqiyotga erishish, avvalo, umuminsoniylik va milliy qadriyatlarga sadoqat tamoyillarining uyg‘unligiga asoslangandagina ijtimoiy yuksalish, ma’naviy-ma’rifiy evrilish kuzatiladi.

Aslida ham jamiyat taraqqiyoti ma’naviy faoliyatni sifat jihatdan yuqori darajada ko‘tarish talabidan kelib chiqadi. Zero, ma’naviyatning eng muhim tomoni shundaki, u insonning o‘zini o‘zi anglashida, jamiyatdagi o‘rnini belgilab berishda, millatning mustaqil etnik birlik ekanligini ta’minlashda va taraqqiy qildirishda katta omil hisoblanadi. Ma’naviyat insonning ichki ruhiyati, unga berilgan “ne’mat” yoxud mavjud ijobiy ko‘rsatkichlar bo‘libgina qolmasdan, shu bilan birga uni izchillik bilan rivojlantirish, shakllantirish hamda undan inson, millat va jamiyatni taraqqiy qildirishda foydalanish jarayonlari mavjud bo‘ladi. U inson, millat va jamiyatni taraqqiy qildiribgina qolmasdan, o‘zi ham rivojlanib boradi [4. B. 148].

Jamiyat hayotining ma’naviy asoslariga, ma’naviy boyliklariga asoslanmasdan va unga to‘g‘ri yondashmasdan turib, iqtisodiy muammolarni hal etish amri maholdir. Qachonki, ma’naviy boyliklardan jamiyatni iqtisodiy rivoj-

lantirishning obyektiv qonuniyatlarini hisobga olgan holda foydalanilsa, shundagina iqtisodiyotda samarali natijalarga erishish mumkin.

Jahon tarixiy tajribasining ko‘rsatishicha, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotning tanho bir o‘zigagina asoslangan jamiyat va davlatning tag zamini mo‘rt bo‘ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot madaniy-ma’naviy, ruhiy, ma’rifiy kamolot, o‘sish-o‘zgarish va rivojlanish bilan chambarchas bog‘langandagina jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti behad tezlashadi va yuksak samaralar beradi. Ijtimoiy hayotda tub tarixiy o‘zgarishlar ana shunday sharoitlarda sodir bo‘ladi.

Jahondagi barcha ilg‘or mamlakatlar tarixiy taraqqiyotning burilish davrlarida jamiyat ma’naviy hayoti rivojlanishi masalalariga katta e’tibor berganlar. Bunda madaniy saviyasi darajasini, ma’naviyati va madaniyatini ko‘tarish zarur, deb hisoblaganlar. Yuksak darajada rivojlangan ma’naviy hayot iqtisodiy-siyosiy muammolarni hal etishning, mehnat unumdorligiga erishishning muhim omilidir. Ma’naviy kamolot xalq, millat va shaxsning ijtimoiy-siyosiy faolligi, moddiy boyliklar mo‘l-ko‘lligiga, farovon hayotga, jamiyatning iqtisodiy tiklanishi va o‘nglanishiga turtki bo‘ladi [5. B. 142-143]. Jamiyatdagi rivojlanishning plyuralistik asosda kechishi, o‘zgarishlarning loyallik darajasi, manfaatlarning mushtarakligi masalasi ham iqtisodiy, ham siyosiy va ma’naviy tamoyillardan kelib chiqadi.

“Ma’naviy sohani erkinlashtirish, – deydi O‘.Muxtorov, – bu insonning ma’naviy hayotiga, ma’naviy jarayonlarga davlat va boshqa tashkilotlarning aralashuvini cheklash, ularning nazorat funksiyalarini kamaytirish, shaxsning erkin mustaqil fikrlashini ta’minlash, fikrlar plyuralizmiga sharoit yaratish, demokratiya va ijtimoiy adolatni barqaror etish, tolerantlik muhitini yaratish, har bir kishining shaxsiy erkinligi uchun imkoniyat yaratish, inson huquqlarini ta’minlash, uning bilimlari va qobiliyatlarini real hayotda ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratishdir” [6. B. 46]. Mazkur fikrga qo‘shilgan holda shuni ta’kidlash lozimki, ma’naviy sohani birlamchi asosga chiqarmasdan, turli cheklovlardan ozod qilmasdan turib fuqarolar ong-u shuuriga quruq ma’naviy rivojlanish haqiga gapirish o‘z samarasini bermasligi aniq.

Shu o‘rinda bir jihatni ham alohida qayd etish lozimki, ma’naviy hayot ijtimoiy faoliyat bilan uyg‘unlikda ta’minlanishiga erishish uchun fuqarolik jamiyati institutlari ko‘magidan foydalanish o‘ta muhim sanaladi.

Ayrim mutaxassislar, ma’naviy hayotning markaziy nuqtasida (uning o‘zagida) jamoatchilik ongini belgilashadi. Chunki fuqarolarning ongi ularning his-tuyg‘ulari, kayfiyatlari, diniy tasavvurlari, qarashlari, g‘oyalari va nazariy bilimlarni o‘zlashtirib borishlari orqali jamiyat hayotining boshqa jabhalari uchun bo‘lgan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi [7. B. 195].

Ijtimoiy taraqqiyotning burilish pallalarida jamiyat qaysi tomonga qarab rivojlanishi odamlarning ma’naviy dunyosi, e’tiqodi, dunyoqarashi va ijtimoiy faollik darajasi bilan belgilanadi.

Shaxsning o‘z ma’naviy dunyosi, dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasini namoyon qilishi ijtimoiy faollik orqali yuz beradi. Ijtimoiy faollik shaxsning o‘z maqsadi va hayot mazmunini namoyon qilish usulidir. Ijtimoiy faollik, ayni paytda, shaxsning ijtimoiy yetuklik, fuqarolik darajasining ko‘rsatkichi hamdir [8. B. 33]. Zotan, ma’naviyatli fuqaro doimo o‘zini rivojlantirishga, muntazam faoliyatga yo‘naltirishga, tashabbuskorlikka va, eng muhimi, xalqparvarlik namoyon etishga tayyor bo‘ladi. U jamiyat manfaati, millat sha’ni va jamiyat a’zolariga nisbatan fidokorona munosabatda bo‘ladi, boshqalarni ham ijtimoiy-siyosiy faollikka, ma’naviy-ma’rifiy salohiyatni rivojlantirishga undaydi.

Ma’naviy hayot jamiyat ma’naviyatini shakllantiruvchi, yo‘naltiruvchi hamda bunyodkorlikka safarbar qiluvchi asosiy tamoyil vazifasini ham bajaradi. Jamiyatning dinamik rivojlanib borishi nafaqat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy omillar bilan, shuning barobarida, ma’naviy omillar bilan ham o‘lchanadi. Ular bir-birini taqozo etadi. Ayni jarayonda ma’naviy hayot jamiyat taraqqiyotining mohiyatini tashkil etadigan tamoyillarni belgilab beradi. Ularning asosida o‘zlikni anglash, milliy an’ana va qadriyatlarga sodiqlik, yangicha ishlash ko‘nikmasi ommalashib, ma’naviyat jamiyat ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga singib boradi.

Ma’naviy hayot yuksak bo‘lmagan joyda moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish madaniyati yuqori darajada bo‘lmaydi. Ma’naviyati yetuk insonlar kelajakni oldindan ko‘rishga, qiyinchiliklarni yengishga,

og‘ir sharoitda ham yuksak maqsadlarni oldiga qo‘yib, ularga ishonch-ixlosni shakllantirishga qodir bo‘ladi. Ma’naviy hayot insonni jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lib, shu jamiyatning haqiqiy a’zosiga aylantiradigan ijtimoiy institut maqomini bajarib beradi. Zero, ma’naviy hayot insonni jamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lib, shu jamiyatning haqiqiy a’zosiga aylantiradigan ijtimoiy institut maqomini bajaradi.

Siyosiy jarayonlarning ko‘ngildagidek kechishida ma’naviy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy qadriyatlar asosida ma’naviy hayot barqarorlashib, jamiyat a’zolarining o‘zaro munosabatlari shakllanib, umumiy maqsad yo‘lida birlashadilar. Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarida muayyan natijaga erishishda moddiy asoslar bilan bir qatorda ma’naviy asoslar ham yetarli hissasini qo‘shadi. Umuman olganda, ijtimoiy rivojlantirishda ma’naviy hayot darajasining o‘rni va ulushi sezilib turadi.

Ma’naviy hayotning asosiy komponentlariga jamiyatning ma’naviy ehtiyojlarini kiritish mumkin. Chunki bu omil insonlarni faoliyatga undovchi, rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirishda qo‘l keladi. Bunda ma’naviy ishlab chiqarish elementlari va iste’molchi pozitsiyasi ham asosiy o‘ringa chiqadi. Bu jarayonda fuqarolarning ijtimoiy-ma’rifiy savodxonlik darajasi jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy va ishlab chiqarishdagi darajasi oshishida katta hissa qo‘shibgina qolmasdan, shuning barobarida, ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotga erishish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Inson ma’naviy dunyosining eng muhim elementlaridan biri ma’naviy ehtiyojlardir. Bu ehtiyojlar bilimga, go‘zallikka, adolatga, haqiqatga, muloqotga nisbatan shakllanadi. Inson faoliyatining katta qismi ana shu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo‘ladi [8. B. 26]. Zero, ma’naviy ehtiyojlar insonni dunyo, hayot mazmuni, muhabbat, mehr-oqibat, adolat va boshqalar haqida fikr yuritishga undaydi.

Xorijlik soha vakillari insonning ma’naviy hayoti ikki turdagi faoliyatda namoyon bo‘lishini ta’kidalashadi. Birinchisi – ma’naviy, madaniy qadriyatlarni ishlab chiqarish va yaratishga qaratilgan faoliyat (madaniyat asarlari, binolar, obyektlar, texnologiyalar hamda tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy tadqiqot natijalari va usullari). Ikkinchisi esa yaratilgan ma’naviy va madaniy qadriyatlarni saqlash, o‘zlashtirish, ko‘paytirish va tarqatishga qaratilgan faoliyat [2]. Inson faoliyati uning ijtimoiy hayot yo‘lini ko‘rsatib turadi, uni qanday bosib o‘tish har bir fuqaroning o‘z burchi va sadoqati, ma’naviy-huquqiy pozitsiyasi va madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Jamiyatning ravnaqi uchun, xalq manfaati uchun qayg‘uradigan, irodali va yangicha fikrlaydigan, zamon talablariga moslashuvchan, irodasi baquvvat insonlar soni ko‘payib borishi zarurat hisoblanadi. Buning amalga oshishi ma’naviy hayot va ma’naviy taraqqiyot bilan konkretlashadi. Zotan, davlat va jamiyat rivojlangan sari ma’naviy asoslarni, uning negizlarini rivojlantirishga bo‘lgan talab ham oshib boraveradi.

Ma’naviy hayot jamiyat ravnaqiga ta’sir etuvchi omil hisoblanadi. Jamiyat o‘zgarib, rivojlanib borar ekan, ma’naviy faoliyat va asoslar ham takomillashib, o‘zgarib boradi. Ma’naviy hayot jamiyatda ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni amalga oshirib keladigan asosiy mezon bo‘lib keladi. Demak, jamiyat ravnaqi fuqaro farovonligi va uning erkin hayot kechirishini nazarga tutar ekan, uni amalga oshirishda ma’naviy faoliyatga yetarlicha sharoit yaratish birlamchi maqsad hisoblanadi. Zero, inson taraqqiyoti jarayoni uzluksiz bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma’rifiy hayoti ta’sirida uning imkoniyatlari kengayib boradi. Bu takomillashuv jamiyatda ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham madaniy va ham siyosiy islohotlarning tizimli kechishini ta’minlaydi.

Fuqarolik jamiyatida burch-manfaat, axloqiy me’yorlar ma’naviy taraqqiyot omili bilan uyg‘unlashib ketadi, bir butun ijtimoiy-siyosiy xarakter kasb etadi.

A.Haydarovning ta’kidlashicha, ma’naviyat ravnaqiga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

– faqat moddiy turmushga, iqtisodga tayanib qolmasdan ma’naviyatning beqiyos o‘rnini tan olish;

– o‘tmish ma’naviy merosimizni yoshlarimiz, xalqimiz orasida keng targ‘ib qilishning ta’sirdor vositalaridan (matbuot, televideniye, radio, mutaxassislar, olimlar bilan jonli muloqot) muntazam foydalanish;

– maktablarda, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida huquqiy bilimlar, ma’naviyat darslari,

falsafa va islom ta’limotiga doir fanlardan saboq berishning yagona tizimini ishlab chiqib, milliy ma’naviyatimiz asoslarini yaratish;

– huquq, falsafa, madaniyat, san’at sohasidagi amaliy mashg‘ulotlarni muzeylarda, kutubxona, teatr va boshqa ma’rifiy muassasalarda o‘tkazish va bu bilan yoshlarda huquqiy ongni shakllantirishda tarix va san’at asarlarining ta’siridan foydalanish;

– bolalarni bog‘cha yoshidan qobiliyatini tekshirib ko‘rib, maxsus yo‘nalishli maktablarda o‘qitishni tashkil qilish;

– milliy iftixor va milliy g‘ypyp bilan yo‘g‘rilgan, ammo milliy mahdudlikdan (millatchilikdan) xoli bo‘lgan, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ta’lim-tarbiyani kuchaytirish [9. B. 32-33].

Boshqacha aytganda, ma’naviy faoliyatni fuqarolik jamiyati negizida rivojlantirib borish jamiyat a’zolarining ma’rifiy-axloqiy mezonlarga amal qilgan holda faol ma’naviy pozitsiyasi shakllantirib borilishini ham anglatadi.

Inson o‘zining ma’naviy hayoti tufayli kundalik hayotiga ibtidoiy qarashlardan xalos bo‘ladi, haqiqat va go‘zallikka, hayotning mazmuni va undagi o‘rnini izlashga, yaxshilik va yomonlik mezonlarini aniqlashga shaxsiy qiziqish ko‘rsatadi [10. B. 15]. Negaki, ma’naviy faoliyatning shaxsni sergaklantiruvchi, tashabbuskorlikka undovchi, jamiyatga kirishib ketishini jadallashtiruvchi funksiyasi ham borligini inkor etib bo‘lmaydi.

Shunindek, ma’naviyatning qay darajada ekani muayyan shaxsning o‘zigagina emas, balki u yashayotgan jamiyat taraqqiyotiga ham hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatar ekan, uni shakllantirishni o‘z holiga tashlab qo‘yib bo‘lmaydi [11. B. 5].

Jamiyat taraqqiyoti ham ma’naviy hayot darajasining o’sib borishiga olib keladi, uning ijtimoiy jarayonlardan kuch olib, yuksaklikka ko‘tarilib borishiga zamin yaratadi. Bu birgina shaxs bilan emas, millat bilan, jamoa uyushqoqligi bilan, umummanfaat bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi zamonda demokratiya va gumanizm, tinchlik va barqarorlik, mustaqillik va ozodlik, qonunning ustuvorligi va inson erkinliklari kabi qadriyatlar umuminsoniy ahamiyatga ega. Shuningdek, yaxshilik, adolat, millatlarning teng huquqliligi, vijdon erkinligi, tabiatni asrash va shu kabilar umuminsoniy g‘oyalarga misol bo‘la oladi. Jamiyat rivojida ular xilma-xil tarzda, turli-tuman shakllarda namoyon bo‘lib, inson hayotining ma’naviy mezoni bo‘lib xizmat qiladi [12]. Chunki ma’naviy mezonning mavjudligi va amal qilishi barqaror rivojlanishni tanlagan jamiyatga xos bo‘lib, unda ma’naviy taraqqiyotga erishish har qanday faoliyatning bosh tamoyiliga aylanadi.

Jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti insoniyat tarixi uchun muhim jihatlardan biri bo‘lib, u fuqarolik jamiyatini barpo qilish bilan birga, bu jamiyat demokratik taraqqiyotining asosini ham tashkil etadi.

O‘zbekistonda ma’naviy taraqqiyot jamiyatning barcha sohalarida amalga oshib borayotgan islohotlarning asosi hisoblanadi. Mamlakatimiz taraqqiyotida tanlab olingan yo‘lning asosiy xususiyati milliy tarixiy madaniyat, qadriyatlar, an’analar, tajribaga asoslanish va shu bilan birga taraqqiy etgan davlatlarning progressiv demokratik rivojlanish yo‘lidagi tajribasidan ham foydalanishdan iborat [6. B. 3]. Shu ma’noda, ma’naviy taraqqiyotga erishuv jamiyatning barcha sohalarida asosli o‘zgarishlar va islohotlar olib borishni nazarda tutadi. Ma’naviy taraqqiyotga erishish tez va oson kechadigan jarayon bo‘lmay, balki jamiyat a’zolaridan siyosiy, huquqiy va ma’rifiy faollikni talab qiladi. Bu orqali jamiyatda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tizimli kechishiga erishish mumkin bo‘ladi.

Ma’naviy yuksalishga jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari ta’sir ko‘rsatadi, ma’naviyatda ular o‘ziga xos tarzda voqe bo‘ladi.

Faylasuf olim A.Erkayev fikricha, ma’naviy yuksalish xususiyatlarini hisobga olib, uning quyidagi qonunlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) jamiyat taraqqiyoti jarayonida ma’naviy ehtiyojlarning muttasil o‘sib borish qonuni;

2) ma’naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog‘liqlik qonuni;

3) ma’naviyat rivojlanishining ijtimoiy ong shakllari rivojlanish darajasiga bog‘liqlik qonuni [13. B. 20].

Jamiyat rivojlanar ekan uning ichida ma’naviy ehtiyojlar ham o‘sib borishini kuzatish mumkin. Inson jamiyatda doim o‘ziga xos tarzda

ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishga, boshqalar bilan teng yashashga, mavjud imkoniyatlardan yetarlicha foydalanishga harakat qiladi. Bu omillar o‘z o‘rnida uning ma’naviy ehtiyojlari o‘sib, talabi oshib borishini ham ko‘rsatib beradi.

Bundan tashqari, ma’naviy rivojlanish jamiyat tamadduniga, millat tarixiga mos holda kelajakka qarab mo‘ljal oladi. Shunga mos tarzda iqtibol rejalarini belgilashda qo‘l keladi. Jamiyatda ma’naviy sohada taraqqiy etish zamonga mos holda to‘ldirilib, ayrim hollarda uning ta’siridan o‘zini himoya qilishga va uddaburonlik qilishga harakat qiladi.

Qolaversa, ijtimoiy ongdagi o‘zgarish, ijtimoiy makon va zamon talablariga moslashish, siyosiy madaniyatni oshirib borish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish jamiyatda ma’naviy rivojlanishning muhim sharti bo‘lib hisoblanadi.

Demak, qaysi mamlakatda ma’naviyatni yuksak darajaga ko‘tarish, u haqida g‘amxo‘rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, o‘sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik vujudga keladi, ilm-fan, ma’rifat va madaniyat rivojlanadi. Bu, o‘z navbatida, mamlakat oldida turgan murakkab muammolarni ma’naviy-ma’rifiy yo‘llar bilan hal etish imkonini yaratadi. Qolaversa, mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar, yangilanish va siyosatning tadrijiy masalalarini o‘rganishning dolzarb ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Xulosa

Ma’naviy taraqqiyotga erishish yoxud unga olib keluvchi samarali yo‘llarni topish va amaliy faoliyatda qo‘llash ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi hamda jamiyat a’zolarining moddiy va ma’naviy darajasi ko‘tarilishiga olib keladi. Mazkur omil – ijtimoiy-siyosiy hayotda ham ustuvorlik kasb etib, insonlarning o‘z ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasini shakllantirib, qat’iy iroda va keng tafakkurga ega bo‘lishiga zamin yaratadi;

– dinamik o‘zgarishlar siyosiy jarayonlar va ijtimoiy rivojlanish ta’sirida o‘zgarib, takomillashib boradi. Bu, o‘z navbatida, jamiyat a’zolarining o‘zaro munosabatlarini rivojlantirib, umumiy maqsad yo‘lida birlashtiradi. Qolaversa, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarida muayyan natijaga erishishi bilan bir qatorda, ma’naviy asoslarga ham yetarlicha hissasini qo‘shadi. Zotan, iqtisodiy va siyosiy omillar singari ma’naviy faoliyat ham jamiyat taraqqiyotining jadallashuviga yetaklovchi muhim omil hisoblanadi;

– ma’naviy barqarorlik jamiyatda ma’rifiy-madaniy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ildamlashuvi hamda siyosiy faoliyatda fuqarolarning davlat va boshqaruv organlariga bo‘lgan ishonchining ortib borishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. *Мирзиёев Ш.* Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. –Тошкент: O‘qituvchi, 2021. –184 б.

2. Духовная жизнь человека. / Обществознание, Общество и человек. Фоксфорд Учебник. [Электронный ресурс]. URL: https://foxford.ru/wiki/ obschestvoznanie. (Дата обращения: 12.08.2023)

3. *Ахмедов Х.А.* Ўзбекистонда жамият маънавий ҳаётидаги ўзгаришлар динамикаси (ижтимоий-сиёсий таҳлил): Сиёсий фанлар доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент: 2018. –110 б.

4. *Отамуратов С.* Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Тошкент: O‘zbekiston, 2015. –148 б.

5. *Туленов Ж.* Фалсафий маданият ва маънавий камолот. – Тошкент: Меҳнат, 2000. – 216 б.

6. *Мухторов Ў.* Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантиришда маънавий соҳани либераллаштириш. – Андижон, 2015. –72 б.

7. *Лавриненко В.Н.* Духовная жизнь общества: социально; философское измерение // Культура и общество, 2012. – №3. – С. 193–198.

8. *Бегматов А., Анварова Д.* Маънавий тарбия. – Тошкент: Akademiya 2012. – 127 б.

9. *Ҳайдаров А.* Маънавият – ҳуқуқий давлатнинг таянчи. – Тошкент: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999. – 96 б.

10. *Баранов С.Т.* Духовность, культура и гуманность: история и современность. – Ставрополь: Изд-во СКФУ, 2017. – 176 с .

11. Маънавий-маърифий ислоҳотлар давлат сиёсатининг асосий, устувор йўналишидир. / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Ў.Носиров. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 159 б.

12. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча, тамойиллар ва атамалар (қисқача изоҳли тажрибавий луғат). / Ўзбекистон Файласуфлар миллий жамияти. Ижодий гуруҳ раҳбари: Х.Султонов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. –208 б.

13. *Эркаев А.* Маънавиятшунослик. 1-китоб. / Китобда: Маънавият онтологияси ва феноменологияси. – Тошкент: Маънавият, 2018. – 480 б.

14. *Тўраев Ш.* Маънавий-маърифий ишлар ва уни ташкил қилиш методикаси. – Тошкент: Paradigma, 2017. – 156 б.

SPIRITUAL LIFE OF SOCIETY – AS A LEADING FACTOR IN THE MODERNIZATION OF SOCIO-POLITICAL PROCESSES

Zokir T. Zamonov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 22-29.

[1]Uzbekistan State University of World Languages, Tashkent, 100136, str. Kichik Xalqa yo'li, 21-a (Uzbekistan). E-mail: uzjtu-d@edu.uz

Keywords: community development, New Uzbekistan, economic and social development, spiritual life, spiritual development.

This article is also based on the activity related to "spiritual life", which is an important factor in achieving social development and continuous improvement of society. The reforms of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev in the social, economic, political and spiritual spheres implemented in our country, first of all, satisfy not only the material, but also the social and spiritual needs of the population, and they are literally highly spiritual. conceptual views combined with the goal of educating people serve as an important resource for the topic of prohibition. In addition, in the social and political life of the society, different levels of social and political views on the study of spiritual foundations have acquired their own meaning. In particular, professor scientists V.Kochkarov, A.Begmatov, A.Erkayev, Kh.Akhmedov, U.Mukhtarov, J.Tolenov and many other local scientists on the issue of spiritual development in the conditions of globalization, democratization of social processes problems of national identity awareness, the dynamics of changes in the spiritual life of the society, the place of spirituality in social development, the issues of spirituality and national thinking were scientifically and theoretically justified.

The spiritual life of society is, by its essence, a real process of people's living, depending on their practice, it is a relatively independent sphere connected with the production and distribution of social activity and consciousness, as well as the spiritual needs of people.

Moral values play an important role in political processes. On the basis of spiritual values, spiritual life is stabilized, mutual relations of society members are formed, and they unite towards a common goal. In addition, spiritual foundations, along with material foundations, make a sufficient contribution to achieving certain results in the economic, political and other spheres of society. In general, the role and share of the level of spiritual life in social development is felt.

Spiritual life plays the role of the main principle that shapes and directs the spirituality of society and mobilizes creativity. The dynamic development of society is measured not only by socio-political, economic and cultural factors, but also by spiritual factors. They require each other. In this process, spiritual life determines the principles that constitute the essence of the development of society. Based on them, self-awareness, loyalty to national traditions and values, and the ability to work in a new way become popular, and spirituality is absorbed into the socio-political activities of society.

This factor also gains priority in political life, forms an active civic position of people, and creates a basis for having a firm will and broad thinking: achieving spiritual development, or finding effective ways leading to it and using them in practical activities, has a positive effect on social and political processes and improves the material and spiritual level of society members. This factor – gaining priority in social and political life, creates the ground for increasing people's trust in management, form-

ing their own socio-political position, and having strong will and broad thinking; dynamic changes change and improve under the influence of political processes and social development. This, in turn, develops mutual relations of society members and unites them towards a common goal.

References:

1. Mirziyoyev, Sh. (2021) *Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda* [New Uzbekistan is becoming a country of democratic changes, wide opportunities and practical work]. Tashkent: O‘qituvchi.

2. Duhovnaya zhizn’ cheloveka. / Obshchestvoznanie, Obshchestvo i chelovek [Social studies, Society and people]. [Online]. URL: https://foxford.ru/. wiki/obschestvoznanie. (Date of Access: 12.08.2023)

3. Akhmedov, K.A. (2018) O‘zbekistonda jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlar dinamikasi (ijtimoiy-siyosiy tahlil) [Dynamics of changes in the spiritual life of society in Uzbekistan (social-political analysis)]. The dissertation for Doctor of political Science (DSc). Tashkent.

4. Otamuratov, S. (2015) *Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik* [Globalization and national-spiritual security]. Tashkent: Uzbekistan.

5. Tulenov, J. (2000) *Falsafiy madaniyat va ma’naviy kamolot* [Philosophical culture and spiritual maturity]. Tashkent: Mehnat.

6. Mukhtarov, U. (2015) *O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ma’naviy sohani liberallashtirish* [Liberalization of the spiritual sphere in the formation of civil society in Uzbekistan]. Andijan.

7. Lavrinenko, V.N. (2012) Duhovnaya zhizn’ obshchestva: social’no; filosofskoe izmerenie [Spiritual life of society: socially; philosophical dimension]. *Kul’tura i obshchestvo*. No. 3. Pp. 193-198.

8. Begmatov, A., Anvarova, D. (2012) *Ma’naviy tarbiya* [Spiritual education]. Tashkent: Akademiya.

9. Haydarov, A. (1999) *Ma’naviyat – huquqiy davlatning tayanchi* [Spirituality is the support of the legal state]. Tashkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

10. Baranov, S.T. (2017) Baranov S.T. Duhovnost’, kul’tura i gumannost’: istoriya i sovremennost’. *–Duxovnost, kultura i gumannost: istoriya i sovremennost: monografiya* [Spirituality, culture and humanity: history and modernity]. Stavropol’: Izdatel’stvo SKFU.

11. Nosirov, O. (ed.) (1998) *Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yo‘nalishidir* [Spiritual and educational reforms are the main, priority direction of state policy]. Tashkent: Uzbekistan.

12. Sultanov, Kh. (ed.) (2002), Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha, tamoyillar va atamalar (qisqacha izohli tajribaviy lug‘at) [The idea of national independence: the main concept, principles and terms (experiential dictionary with a brief explanation)]. Tashkent: Yangi asr avlodi.

13. Erkayev, A. (2018) *Ma’naviyatshunoslik* [Spiritual science]. In: Ma’naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi [Ontology and phenomenology of spirituality]. Book 1. Tashkent: Ma’naviyat.

14. Turayev Sh. (2017) *Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va uni tashkil qilish metodikasi* [Spiritual and educational works and the method of its organization]. Tashkent: Paradigm.

Muallif haqida ma’lumot:

ZAMONOV Zokir Turg‘inovich – siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti. E-mail: zamonovz86@mail.ru